



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





ISLOM MOLIYASIDA RISKLARNI BOSHQARISH

Toshpulatov Davron Akromovich

*Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
Bank hisobi va auditi kafedrası,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: toshpulatov.davron@mail.ru
ORCID: 0009-0006-6776-8913*

Annotatsiya. Ushbu maqolada islomiy bankingning an'anaviy moliyaga nisbatan risk tuzilmasi hamda o'tish davri iqtisodiyotida shariatga muvofiq moliyaviy vositalarni joriy etish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotda Bazel II/III standartlari va Islomiy Moliyaviy Xizmatlar Kengashi standartlarida (IFSB-1 dan IFSB-31 gacha) nazarda tutilgan risklar taksonomiyasi O'zbekistonning institutsional va huquqiy muhiti bilan qiyosiy yondashuv asosida o'rganilgan. Shuningdek, islomiy moliyaviy mahsulotlarning risk xususiyatlari, turli moliyalashtirish vositalarining risk profillari hamda ularni baholash mezonlari ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston sharoitida islomiy moliyani joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan institutsional, huquqiy va tashkiliy omillar tahlil qilingan hamda mamlakatda ikki tomonlama bank tizimini shakllantirishga qaratilgan amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Islomiy bank risklarini boshqarish; Shariatga rioya qilmaslik riski; siqib chiqarilgan tijorat riski; foyda va zararni taqsimlash; IFSB prudensial standartlari; ikki tomonlama bank tizimi; O'zbekiston moliyaviy islohoti; Sukuk bozori.

RISK MANAGEMENT IN ISLAMIC FINANCE

Davron Toshpulatov Akromovich

*Doctor of Economic Sciences (DSc)
Department of Banking Accounting and Audit
Tashkent State University of Economics
E-mail: toshpulatov.davron@mail.ru
ORCID: 0009-0006-6776-8913*

Abstract. This article analyzes the risk structure of Islamic banking in comparison with conventional finance, as well as issues related to the introduction of Shariah-compliant financial instruments in a transition economy. The study examines the risk taxonomy envisaged under the Basel II/III standards and the standards of the Islamic Financial Services Board (IFSB-1 to IFSB-31) through a comparative approach in relation to the institutional and legal environment of Uzbekistan. Furthermore, the article considers the risk characteristics of Islamic financial products, the risk profiles of various financing instruments, and the criteria used for their assessment. The paper also analyzes the institutional, legal, and organizational factors that may arise during the implementation of Islamic finance in Uzbekistan and highlights the implementation mechanisms aimed at establishing a dual banking system in the country.

Keywords: Islamic bank risk management; Shariah non-compliance risk; displaced commercial risk; profit and loss sharing; IFSB prudential standards; dual banking system; financial reform in Uzbekistan; Sukuk market.

УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ В ИСЛАМСКИХ ФИНАНСАХ

Тошпулатов Даврон Акромович

*Доктор экономических наук (DSc)
Кафедра банковского учета и аудита
Ташкентский государственный экономический университет*





E-mail: toshpulatov.davron@mail.ru

ORCID: 0009-0006-6776-8913

Аннотация. В данной статье проанализированы особенности структуры рисков исламского банкинга по сравнению с традиционными финансовыми институтами, а также вопросы, связанные с внедрением финансовых инструментов, соответствующих нормам шариата, в условиях переходной экономики. В исследовании на основе сравнительного подхода рассмотрена таксономия рисков, предусмотренная стандартами Базель II/III и стандартами Совета по исламским финансовым услугам (IFSB-1–IFSB-31), с учетом институциональной и правовой среды Узбекистана. Кроме того, исследованы риск-характеристики исламских финансовых продуктов, риск-профили различных инструментов финансирования, а также критерии их оценки. В статье также проанализированы институциональные, правовые и организационные факторы, которые могут возникнуть в процессе внедрения исламских финансов в Узбекистане, и освещены механизмы реализации, направленные на формирование двухуровневой банковской системы в стране.

Ключевые слова: управление рисками исламских банков; риск несоблюдения требований шариата; риск вытесненной коммерческой доходности; распределение прибыли и убытков; пруденциальные стандарты IFSB; двухуровневая банковская система; финансовая реформа Узбекистана; рынок сукук.

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda global islom moliyasi sektori barqaror rivojlanish sur‘atlarini namoyon etib, yillik o‘shish darajasi o‘rtacha 10–12 foiz atrofida shakllandi. Shariat tamoyillariga muvofiq faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlar boshqaruvidagi jami aktivlar hajmi 2022-yilda 4,2 trillion AQSH dollaridan oshib, 2015-yilga nisbatan qariyb 93 foizga ortdi [1]. S&P Global Ratings (2023) prognozlariga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2026-yilga borib 6 trillion AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu o‘shish, avvalo, Janubi-Sharqiy Osiyo va Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (GCC) mamlakatlarida, shuningdek, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishga intilayotgan o‘tish davri iqtisodiyotlarida shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston mazkur jarayonlarni o‘rganish nuqtai nazaridan muhim tahliliy ahamiyat kasb etadi. Aholisi 38 milliondan ortiq bo‘lgan va aholining 96 foizdan ziyodi o‘zini musulmon deb hisoblaydigan mamlakatda 2017-yildan buyon real yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari barqaror ravishda 5,5 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Ushbu omillar O‘zbekistonni dunyodagi foydalanilmagan salohiyatga ega yirik islomiy moliya bozorlaridan biri sifatida tavsiflash imkonini beradi. BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistonda 2024-yilda o‘tkazgan tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, katta yoshdagi aholining 68 foizi hamda ro‘yxatdan o‘tgan korxonalarining 60 foizi diniy e‘tiqod bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra an‘anaviy bank xizmatlaridan foydalanishni cheklaydi yoki undan voz kechadi [2]. Mazkur holat moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talab bilan mavjud institutsional taklif o‘rtasida sezilarli tarkibiy nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Markaziy bankining 2024-yil dekabr oyida Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) a‘zoliciga qabul qilinishi hamda 2026-yil fevral oyida mamlakat parlamentining yuqori palatasi tomonidan “Islom banki to‘g‘risida”gi qonunning ratifikatsiya qilinishi ushbu yo‘nalishda davlat siyosatining izchil va strategik xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi.

Biroq, amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning ko‘lami va ahamiyatiga qaramasdan, O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish bilan bog‘liq risk oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar son jihatidan cheklangan bo‘lib, mavjud tadqiqotlar asosan tavsifiy xususiyatga ega bo‘lib qolmoqda [3]. Kengroq ilmiy adabiyotlarda esa islomiy bank risklari bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlar, jumladan, Čihák va Hesse, Abedifar, Molyneux va Tarazi, shuningdek Hassan va Aliyu kabi olimlarning ishlari asosan Yaqin Sharq va Shimoliy





Afrika (MENA) mintaqasi hamda Janubi-Sharqiy Osiyodagi shakllangan ikki tomonlama bank tizimlariga qaratilgan [4]. Aksincha, shariat boshqaruvi infratuzilmasi, rivojlangan ikkilamchi kapital bozorlari va shariat tamoyillariga mos oxirgi instansiya kreditori mexanizmlari hali shakllanmagan yangi tartibga solish muhitlarida yuzaga keladigan o‘ziga xos risk dinamikalarini ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, uchta o‘zaro bog‘liq tadqiqot maqsadini ko‘zlaydi. Birinchidan, Bazel II/III standartlari doirasidagi an’anaviy risklar taksonomiyasi hamda IFSB tomonidan ishlab chiqilgan islomiy moliya risklari tasnifi o‘rtasidagi konseptual farqlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ikkinchidan, shariat tamoyillariga muvofiq 12 ta moliyaviy instrumentni qamrab oluvchi va yettita risk o‘lchovi asosida shakllantirilgan mahsulot darajasidagi kompleks risk matritsasi ishlab chiqiladi. Uchinchidan, O‘zbekiston sharoitiga xos risk kuchaytiruvchi omillar aniqlanadi hamda mamlakatda islomiy bank faoliyatini joriy etish uchun to‘rt ustunga asoslangan tartibga solish va institutsional rivojlantirish modeli taklif etiladi.

Maqolaning keyingi tuzilishi quyidagicha tashkil etilgan. Ikkinchi bo‘limda islomiy bank risklari bo‘yicha nazariy va empirik adabiyotlar sharhi keltiriladi. Uchinchi bo‘lim tadqiqot metodologiyasiga bag‘ishlangan. To‘rtinchi bo‘limda risklarning qiyosiy taksonomiyasi, mahsulot darajasidagi risk matritsasi, islomiy moliyaga xos risk mexanizmlari, ularni miqdoriy baholash yondashuvlari, O‘zbekiston sharoitiga xos risk omillari hamda to‘rt ustunli institutsional model tahlil qilinadi. Beshinchi bo‘limda esa tadqiqot natijalarining amaliy-siyosiy implikatsiyalari va kelgusidagi ilmiy izlanishlar istiqbollari yoritiladi..

Adabiyotlar tahlili

Islomiy banklarda risklarni boshqarish tizimi an’anaviy bank amaliyotidan o‘zining nazariy asoslari va faoliyat tamoyillari jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Islom huquqining muomalalar sohasiga oid qoidalari asosida riba (foiz), g‘arar (haddan tashqari noaniqlik) va maysir (spekulyativ operatsiyalar)ning taqiqlanishi moliyaviy munosabatlarning shakllanishi va ular bilan bog‘liq risklarning xususiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [5]. An’anaviy bank tizimi asosan foizli qarz munosabatlariga tayansa, islomiy moliya konsepsiyasi foyda va zararni taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Natijada, mablag‘ qo‘yuvchilar oddiy kreditor maqomidan investitsiya ishtirokchilariga aylanadi, banklar esa moliyalashtirilayotgan loyihalarning real iqtisodiy natijalari bilan bevosita bog‘lanadi [6].

Akkizidis va Khandelwal islomiy bank risklarini tizimli ravishda tasniflashga qaratilgan dastlabki tadqiqotlardan birini amalga oshirib, aktivlar bilan ta’minlangan moliyalashtirish shakllari, sheriklik asosidagi shartnomalar hamda foizli xedjirlash instrumentlarining qo‘llanilmasligi an’anaviy Bazel II yondashuvlari bilan to‘liq qamrab olinmaydigan o‘ziga xos risk profilini yuzaga keltirishini ta’kidlaydilar [6]. Mazkur tadqiqot keyinchalik ishlab chiqilgan IFSB standartlari va empirik tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos vazifasini bajargan.

Oseni va Hassan shariat talablariga rioya qilmaslik riskini operatsion riskning alohida turi sifatida ko‘rib chiqib, uni boshqarish uchun maxsus institutsional mexanizmlar zarurligini asoslaydilar [7]. Mualliflar bunga misol sifatida Buyuk Britaniyada yuz bergan Beximco Pharmaceuticals Ltd va Shamil Bank o‘rtasidagi sud ishini keltiradilar. Mazkur holatda sud tomonidan "Murabaha" shartnomasi iqtisodiy mazmuniga ko‘ra foizli kredit sifatida talqin qilingan va uning ijrosi rad etilgan. Ushbu holat shariat boshqaruvi tizimidagi kamchiliklar sezilarli huquqiy risklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Čihák va Hesse 19 ta mamlakatdagi ikki tomonlama bank tizimlari ma’lumotlari asosida islomiy va an’anaviy banklarning moliyaviy barqarorligini taqqoslagan dastlabki yirik empirik tadqiqotlardan birini amalga oshirdilar [8]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik hajmdagi islomiy banklar o‘xshash an’anaviy banklarga nisbatan yuqori barqarorlik darajasini namoyon etgan bo‘lsa, yirik islomiy banklarda aksincha holat kuzatilgan. Mualliflar ushbu tafovutni foyda va zararni taqsimlash asosidagi moliyalashtirishni keng miqyosda nazorat qilishning murakkabligi hamda islomiy banklararo bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan





izohlaydilar.

Abedifar, Molyneux va Tarazi 24 mamlakatdagi 553 ta bank faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilib, ayniqsa musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil etuvchi mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan kichik islomiy banklarda kredit riskining nisbatan pastligini aniqladilar [4]. Shu bilan birga, institutsional omillar hisobga olinganidan so'ng banklarning to'lovga qobiliyatsizlik riski bo'yicha sezilarli statistik tafovut mavjud emasligi qayd etilgan. Bu esa islomiy banklarning risk profili ko'p jihatdan mamlakatning institutsional va iqtisodiy sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Hassan va Aliyu 1983–2017-yillar davomida chop etilgan empirik tadqiqotlarni umumlashtirib, uchta asosiy ilmiy bo'shliq mavjudligini qayd etadilar [9]. Birinchidan, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun moslashtirilgan islomiy stress-testlash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, Shariat kuzatuv kengashi tarkibining operatsion risklarga ta'siri yetarlicha tadqiq etilmagan. Uchinchidan, Fors ko'rfazi mamlakatlaridan tashqarida siqib chiqarilgan tijorat riski dinamikasi bo'yicha empirik tadqiqotlar son jihatidan cheklangan. Ushbu bo'shliqlarning har biri O'zbekistonning institutsional muhitiga bevosita taalluqlidir.

Abdeljawad va hammualliflar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasining 13 ta mamlakati ma'lumotlari asosida olib borilgan panel tahlil natijalariga tayangan holda, islomiy banklar kuchliroq axloqiy boshqaruv va ko'p bosqichli nazorat mexanizmlari hisobiga geosiyosiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitlarida ham kredit risklarini nisbatan samarali boshqarishga qodir ekanligini ko'rsatadilar [10].

Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar tizimi islomiy banklarda risklarni boshqarishning institutsional asoslarini shakllantirdi. Xususan, IFSB-12 likvidlik riskini boshqarish bo'yicha, IFSB-13 stress-testlash jarayonlarini tashkil etish bo'yicha, IFSB-23 kapital yetariligi talablari bo'yicha hamda IFSB-31 shariat boshqaruvi tizimlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni belgilab berdi. O'zbekiston Markaziy bankining IFSB a'zoliciga qabul qilinishi mazkur standartlarni milliy amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda..

Ushbu adabiyotlarning keng qamrovliligiga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda IFSB standartlarini o'tish davri iqtisodiyoti sharoitida amaliy qo'llash masalalari yetarlicha yoritilmagan. Xususan, islomiy moliyaviy instrumentlar bo'yicha mahsulot darajasidagi kompleks risk matritsalarini shakllantirish, rivojlanmagan institutsional infratuzilma sharoitida yuzaga keladigan qo'shimcha risk omillarini aniqlash hamda mamlakatning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan..

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda islomiy moliya sohasidagi institutsional va prudensial tartibga solish masalalarini o'rganishda tizimli-qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi Al Ramahleh, Bhatti va Misman (2019) tomonidan islomiy moliya institutlarini tartibga solish bo'yicha tavsiya etilgan yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi hamda uchta o'zaro bog'liq tarkibiy qismni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda islomiy moliyani tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Jumladan, Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB) tomonidan qabul qilingan prudensial standartlar (IFSB-1, IFSB-12, IFSB-13, IFSB-17, IFSB-23 va IFSB-31), Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) standartlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, xususan 2024-yil iyuldagi 3536-son qarori, shuningdek islomiy bank faoliyati va islomiy kapital bozori bo'yicha qonunchilik tashabbuslari o'rganildi [11]. Mazkur hujjatlar Bazel II/III standartlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, islomiy moliyaga xos risk omillari va ularning konseptual xususiyatlari aniqlashtirildi.





Ikkinchi bosqichda IFSB-1 hamda IFSB-17 standartlarida nazarda tutilgan yondashuvlar asosida islomiy moliyaviy shartnomalar va Bazel II/III risk toifalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi [12]. Natijada an’anaviy prudensial yondashuvlarda uchramaydigan islomiy moliyaga xos risklarning alohida tasnifi shakllantirildi.

Uchinchi bosqichda Akkizidis va Khandelwal, IFSB-1 hamda IFSBning moliyaviy barqarorlik hisobotlari ma’lumotlari asosida islomiy moliyaviy mahsulotlarning risk profili baholandi [6]. Shu asosda 12 ta moliyaviy instrument va 7 ta risk o‘lchovini qamrab oluvchi risk matritsasi ishlab chiqildi. Har bir mahsulot va risk turi bo‘yicha baholash natijalari nazariy asoslar hamda mavjud empirik tadqiqotlar xulosalariga tayangan holda yuqori, o‘rta va past risk darajalariga ajratildi. Ushbu matritsa islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini joriy etayotgan moliya institutlari va risk-menejerlar uchun amaliy diagnostik vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy bazasi, BMT Taraqqiyot dasturining 2024-yilgi tadqiqotlari hamda islomiy bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik tashabbuslari tahlili asosida mamlakatga xos risk kuchaytiruvchi omillar aniqlashtirildi [2]. Aniqlangan omillarni hisobga olgan holda, IFSB standartlari talablariga mos ravishda hamda milliy institutsional imkoniyatlarni inobatga olgan holda islomiy bank faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan to‘rt ustunli institutsional model ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Islomiy banklar an’anaviy banklar singari kredit riski, bozor riski, likvidlik riski va operatsion risk kabi asosiy risk turlariga duch keladi. Biroq, ushbu risklarning shakllanish manbalari, namoyon bo‘lish mexanizmlari va boshqarish usullari islomiy moliyalashtirishning o‘ziga xos shartnomaviy xususiyatlari sababli an’anaviy bank faoliyatidan sezilarli darajada farq qiladi [6].

Mazkur farqlar, avvalo, uchta asosiy omil bilan izohlanadi. Birinchidan, islomiy moliyaviy operatsiyalar real aktivlar yoki xizmatlar bilan ta‘minlangan bo‘lib, moliyalashtirishning real iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqligini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, foyda va zararni taqsimlash tamoyiliga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy mazmunini o‘zgartirib, bankning moliyalashtirilayotgan loyihaning tijorat natijalariga bevosita bog‘lanishiga olib keladi. Uchinchidan, barcha operatsiyalarning shariat tamoyillariga muvofiqligini ta‘minlash zarurati an’anaviy bank amaliyotida uchramaydigan qo‘shimcha risk turini, ya‘ni shariat talablariga rioya qilmaslik riskini yuzaga keltiradi [4].

1-jadval

An’anaviy va islomiy bank faoliyatida risklarning qiyosiy tavsifi

Risk toifasi	An’anaviy bank faoliyati	Islomiy bank faoliyati
Kredit riski	Foizli kreditlar bo‘yicha qarzdorning majburiyatlarni bajarmaslik riski; odatda PD va LGD modellari asosida baholanadi.	Murabaha bo‘yicha debitorlik qarzlari, Ijarah bo‘yicha ijara to‘lovlari yoki sheriklik asosidagi shartnomalar bo‘yicha foyda taqsimoti majburiyatlarining bajarilmasligi bilan bog‘liq risklar. Mudaraba va Musharaka shartnomalarida axborot assimetriyasi ushbu riskni kuchaytirishi mumkin.
Bozor riski	Foiz stavkalari, valyuta kurslari va moliyaviy aktivlar narxlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq risklar.	Tovar narxlarining o‘zgarishi (Salam va Murabaha operatsiyalarida), benchmark stavkalarining o‘zgarishi hamda investitsiya hisobvaraqlari daromadlilik bilan bog‘liq risklar.
Likvidlik riski	Aktiv va passivlarning muddatlari nomuvofiqligi hamda banklararo bozor resurslariga qaramlik natijasida yuzaga keladi.	Shariat talablari tufayli an’anaviy likvidlik instrumentlaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, sukuk ikkilamchi bozorining rivojlanmaganligi hamda shariatga mos oxirgi instansiya kreditori mexanizmlarining mavjud emasligi bilan bog‘liq.





Risk toifasi	An’anaviy bank faoliyati	Islomiy bank faoliyati
Operatsion risk	Jarayonlar, xodimlar, axborot tizimlari yoki tashqi omillar sababli yuzaga keladigan yo’qotishlar riski.	An’anaviy operatsion risklar bilan bir qatorda shariat talablariga rioya qilmaslik riski va ishonch (fiduciary) riski ham mavjud.
Islomga xos risklar	Qo’llanilmaydi.	Siqib chiqarilgan tijorat riski (Displaced Commercial Risk), aksiyadorlik investitsiyalari riski (Equity Investment Risk), daromadlilik darajasi riski (Rate of Return Risk), ishonch riski (Fiduciary Risk) hamda shariat talablariga rioya qilmaslik riski (Shariah Non-compliance Risk).

Manba: IFSB-1 (2005), IFSB-17 (2015), Akkizidis & Khandelwal (2008) va IFSB barqarorlik hisoboti (2024) asosida mualliflar xulosasi.

1-jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, an’anaviy va islomiy bank faoliyatida uchraydigan asosiy risk toifalari o’xshash bo’lishiga qaramay, ularning iqtisodiy mohiyati va shakllanish mexanizmlarida sezilarli farqlar mavjud. Mazkur farqlarning asosiy sababi an’anaviy bank amaliyotiga xos bo’lgan qat’iy daromadli kreditorlik munosabatlarining islomiy moliyada aktivlar bilan ta’minlangan yoki sheriklik tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish shakllari bilan almashtirilganligidadir. Natijada, an’anaviy banklarga xos ayrim risklar, xususan aktivlar bo’yicha foiz stavkasi riski o’z ahamiyatini yo’qotadi, biroq buning o’rniga tovar narxlari riski, daromadlilik darajasi riski va ishonch riski kabi yangi risk turlari yuzaga keladi. Jadvalning so’nggi qatorida an’anaviy bank amaliyotida uchramaydigan va islomiy moliyaning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan beshta maxsus risk turi keltirilgan bo’lib, ular keyingi bo’limlarda batafsil tahlil qilinadi.

Islomiy moliyaviy mahsulotlarning risk profili va ularning intensivligi moliyalashtirish shartnomalarining iqtisodiy tabiatiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, Murabaha shartnomasi belgilangan ustama asosidagi savdo moliyalashtirish vositasi sifatida kredit riski va likvidlik riski nuqtai nazaridan an’anaviy savdo moliyalashtirish operatsiyalariga yaqin xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, ushbu instrumentda aktivning bank mulkiga o’tishi va keyinchalik mijozga realizatsiya qilinishi kabi shariat talablari mavjudligi sababli shariat talablariga rioya qilmaslik riski saqlanib qoladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Mudaraba va Musharaka kabi sheriklikka asoslangan moliyalashtirish instrumentlari yuqori risk darajasi bilan tavsiflanadi. Ushbu mahsulotlar foyda va zararni taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi sababli, ular axborot assimetriyasi, monitoring xarajatlarining yuqoriligi hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy natijalariga bevosita bog’liqlik kabi omillar ta’sirida bir vaqtning o’zida bir nechta risk turlariga duch keladi. Natijada, mazkur instrumentlar ko’rib chiqilayotgan risk o’lchovlarining aksariyati bo’yicha yuqori yoki o’rtacha-yuqori risk darajasiga ega bo’ladi [9].

2-jadval.

Islomiy moliyaviy mahsulotlarining ta’rifi

Mahsulot turi	Guruh	Qisqacha tavsifi
Murabaha	Savdo asosidagi moliyalashtirish vositalari	Bank mijozning buyurtmasiga asosan muayyan tovar yoki aktivni uchunchi shaxsdan sotib oladi hamda unga oldindan kelishilgan foyda marjasi qo’shilgan narxda muddatli to’lov sharti asosida sotadi. Ushbu shartnomada bankning daromadi kredit foizi emas, balki real savdo operatsiyasidan shakllangan savdo marjasi hisoblanadi. Murabaha islomiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan va nisbatan past riskli moliyalashtirish vositalaridan biri hisoblanadi.
Salam		Salam shartnomasi bo’yicha bank kelajakda yetkazib berilishi lozim bo’lgan mahsulot uchun to’lovni oldindan to’liq amalga oshiradi, sotuvchi esa mahsulotni belgilangan muddatda va kelishilgan sifat hamda miqdorda yetkazib berish majburiyatini oladi. Ushbu instrument asosan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini va mavsumiy ishlab chiqarishni moliyalashtirishda





Mahsulot turi	Guruh	Qisqacha tavsifi
		qo'llanilib, narxlarning o'zgarishi va yetkazib berish bilan bog'liq risklarning yuqoriligi bilan tavsiflanadi.
Istisna'a		Istisna'a shartnomasi ishlab chiqarilishi yoki qurilishi talab etiladigan aktivlarni moliyalashtirish uchun qo'llaniladi. Bank ishlab chiqaruvchi yoki pudratchiga ma'lum texnik parametrlar va muddatlar asosida mahsulot yoki obyekt tayyorlashni buyurtma qiladi hamda uni keyinchalik yakuniy mijozga topshiradi. Mazkur instrument infratuzilma loyihalari, sanoat obyektlari va ko'chmas mulk qurilishida keng qo'llaniladi hamda bajarilish va operatsion risklarning yuqoriligi bilan ajralib turadi.
Mudaraba		Mudaraba kapital egasi va tadbirkor o'rtasidagi sheriklik shartnomasi bo'lib, unda bank moliyaviy resurslarni taqdim etadi, tadbirkor esa loyiha yoki biznesni boshqaradi. Olingan foyda oldindan kelishilgan ulushlarda taqsimlanadi, moliyaviy zarar esa tadbirkorning qasddan xatti-harakati yoki beparvoligi aniqlanmagan taqdirda kapital egasi zimmasiga tushadi. Ushbu model islomiy moliyaning asosiy foyda va zarar taqsimoti tamoyilini aks ettiradi.
Musharaka	Sheriklik asosidagi moliyalashtirish vositalari	Musharaka shartnomasi bank va mijozning loyihaga yoki biznes faoliyatiga birgalikda kapital kiritishini nazarda tutadi. Tomonlar foydani oldindan kelishilgan ulushlarda, zararni esa kiritilgan kapital hajmiga mutanosib ravishda taqsimlaydilar. Mazkur model risk va daromadning adolatli taqsimlanishini ta'minlashi sababli islomiy moliyaning eng muhim sheriklik instrumentlaridan biri hisoblanadi.
Musharakani kamaytirish (Diminishing Musharaka)		Ushbu modelda bank va mijoz aktivga birgalikda egalik qiladi, biroq mijoz vaqt o'tishi bilan bankning ulushini bosqichma-bosqich sotib boradi. Natijada aktiv ustidan egalik huquqi to'liq ravishda mijozga o'tadi. Instrument, ayniqsa, uy-joy va ipoteka moliyalashtirishida keng qo'llaniladi hamda an'anaviy ipoteka kreditlariga islomiy muqobil sifatida qaraladi.
Ijara	Ijara asosidagi moliyalashtirish vositalari	Ijara shartnomasi bank tomonidan sotib olingan aktivni ma'lum muddat davomida mijozga foydalanish uchun ijaraga berishni nazarda tutadi. Aktivga egalik huquqi ijara muddati davomida bankda saqlanib qoladi, mijoz esa undan foydalanish evaziga ijara to'lovlarini amalga oshiradi. Ushbu instrument iqtisodiy mohiyatiga ko'ra an'anaviy lizing operatsiyalariga yaqin hisoblanadi.
Ijarah va Iqtina		Ushbu instrument oddiy ijaradan farqli ravishda, ijara muddati yakunlangach mijozga aktivni sotib olish imkoniyatini beradi. Mijoz ijara to'lovlari bilan bir qatorda aktiv qiymatini ham bosqichma-bosqich qoplaydi va shartnoma yakunida aktivning to'liq egasiga aylanadi. Ushbu model transport vositalari, uskunalar va ko'chmas mulkni moliyalashtirishda keng qo'llaniladi.
Sukuk	Kapital bozori vositalari	Sukuk an'anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda qarz majburiyatini emas, balki muayyan aktiv, loyiha yoki investitsion portfeldagi ulushli egalik huquqini ifodalaydi. Investorlarning daromadi foiz to'lovlari hisobidan emas, balki mazkur aktivlardan olinadigan iqtisodiy foyda yoki ijara daromadlari hisobidan shakllanadi.
Vakala	Agentlik va boshqaruv asosidagi vositalar	Vakala shartnomasi bir tomonning boshqa tomonga o'z nomidan ma'lum operatsiyalarni amalga oshirish vakolatini berishiga asoslanadi. Islomiy moliya institutlarida ushbu instrument investitsiya portfellarini boshqarish, likvidlikni joylashtirish va aktivlarni boshqarish operatsiyalarida keng qo'llaniladi.
Takaful	O'zaro yordam va sug'urta vositalari	Takaful islomiy sug'urta mexanizmi bo'lib, unda ishtirokchilar o'zaro yordam va risklarni taqsimlash tamoyili asosida umumiy jamg'arma shakllantiradilar. Sug'urta operatori esa ushbu jamg'armani boshqaruvchi agent sifatida faoliyat yuritadi. Modelning asosiy tamoyillari o'zaro ko'mak, hamkorlik va ijtimoiy adolat hisoblanadi.
Qard al-Hasan	Ijtimoiy moliyalashtirish vositalari	Qard al-Hasan ijtimoiy yo'naltirilgan foizsiz qarz bo'lib, qarz oluvchidan faqat asosiy qarz summasini qaytarish talab etiladi. Ushbu instrument kambag'allikni qisqartirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirishda keng qo'llaniladi hamda islomiy moliyaning ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini aks ettiradi.

Manba: Adabiyotlardan o'rganilishi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.




3-jadval.
Islomiy moliyaviy mahsulotlarining ko‘p o‘lchovli risk matritsasi

Mahsulot turi	Kredit riski	Bozor riski	Likvidlik risk	Operatsion risk	Shar‘iy risk	Daromadlilik darajasi (IRR)	Fiduciary Risk
Murabaha	O‘rtacha	Past	Past	O‘rtacha	Yuqori	Past	—
Salam	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	Past	—
Istisna‘a	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	Past	—
Mudaraba	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Musharaka	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Musharakani kamaytirish	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha
Ijara	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha	—
Ijarah wa Iqtina	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Past
Sukuk	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha
Vakala	Past	O‘rtacha	Past	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	—
Takaful	Past	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori	Past	—
Qard al-Hasan	Yuqori	—	O‘rtacha	Past	Past	—	—

Manba: IFSB-1 (2005), Akkizidis & Khandelwal (2008) va IFSB barqarorlik hisoboti (2024) asosida mualliflar xulosasi.

Sukuk instrumentlari risk matritsasi alohida o‘rin egallaydi. Bu, bir tomondan, ko‘plab mamlakatlarda sukukning ikkilamchi bozorlari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli yuqori likvidlik riskini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, sukuk emissiyalarining murakkab huquqiy va shartnomaviy tuzilishi bozor riskining oshishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim sukuk tuzilmalarining, ayniqsa aktivlar bilan ta‘minlangan emas, balki aktivlarga asoslangan sukuklarning shariat talablariga muvofiqligi yuzasidan mavjud ilmiy munozaralar ushbu instrumentlar uchun shariat riski darajasini ham oshiradi. O‘zbekistonda hozirgi kunda sukukning ikkilamchi bozori shakllanmaganligi sababli, 2-jadvalda keltirilgan likvidlik riski islomiy moliyalashtirishni joriy etish jarayonidagi asosiy institutsional cheklovlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shariat talablariga rioya qilmaslik riski moliyaviy operatsiya yoki shartnomaning shariat me‘yorlariga mos kelmasligi ehtimolini anglatadi [13]. Ushbu nomuvofiqlik shartnomaning mazmuni yoki uning amalga oshirilish tartibi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. An‘anaviy operatsion risklardan farqli ravishda, mazkur risk moliyaviy operatsiyaning yuridik va shariat nuqtai nazaridan haqiqiyligiga taalluqli hisoblanadi. Shu sababli IFSB standartlarida operatsion risk tushunchasi kengaytirilib, unga shariat talablariga rioya qilmaslik, huquqiy risklar hamda fidutsiar majburiyatlarning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan yo‘qotishlar ham kiritilgan [12].

Shariat talablariga zid deb topilgan operatsiyalar bo‘yicha olingan daromadlarni xayriya maqsadlariga yo‘naltirish hamda shartnomalarni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Bu esa moliyaviy yo‘qotishlar bilan bir qatorda reputatsion risklarning ham ortishiga olib keladi. Bunga misol sifatida Beximco Pharmaceuticals Ltd va Shamil Bank o‘rtasidagi sud ishini keltirish mumkin. Mazkur ishda sud Murabaha shaklida tuzilgan bitim iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra foizli kreditga yaqin degan xulosaga kelgan. Ushbu holat shariat talablari va milliy qonunchilik o‘rtasidagi nomuvofiqlik muhim huquqiy risklarni yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida mazkur riskning ahamiyati yanada yuqori bo‘lib, bunga islomiy moliyaga oid sud amaliyotining shakllanmaganligi hamda amaldagi fuqarolik-huquqiy mexanizmlarning aktivlarga asoslangan va sheriklik tamoyillariga tayanuvchi moliyalashtirish instrumentlariga to‘liq moslashmaganligi sabab bo‘ladi.

Siqib chiqarilgan tijorat riski (Displaced Commercial Risk — DCR) islomiy banklarning foyda va zararni taqsimlash tamoyiliga asoslangan faoliyati bilan bozor raqobati talablari o‘rtasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladi [12]. Agar investitsiya hisobvaraqlari bo‘yicha haqiqiy daromadlilik darajasi an‘anaviy depozit mahsulotlari bo‘yicha bozor stavkalaridan sezilarli darajada past bo‘lsa, mablag‘larning boshqa moliyaviy institutlarga oqib ketish xavfi kuchayadi. Bunday sharoitda banklar ko‘pincha aksiyadorlar mablag‘lari hisobidan investorlarga





qo‘shimcha daromad to‘lash orqali ushbu tafovutni yumshatishga harakat qiladilar. Natijada riskning bir qismi investitsiya hisobvaraqlari egalari zimmasidan bank aksiyadorlari zimmasiga o‘tadi. IFSB-23 standartida ushbu riskni hisobga olish uchun alfa koeffitsienti qo‘llaniladi hamda foydani tenglashtirish zaxiralari (PER) va investitsiya risklari zaxiralari (IRR)ni shakllantirish tavsiya etiladi.

Musharaka va Mudaraba shartnomalarida bank moliyalashtirilayotgan loyihaning kapitalida bevosita ishtirok etadi va yuzaga keladigan zararlarni sheriklik ulushiga mutanosib ravishda qabul qiladi. Mazkur instrumentlarda an‘anaviy kreditlash amaliyotida mavjud bo‘lgan garov hisobiga zararlarni qoplash mexanizmlari cheklangan darajada qo‘llaniladi [6]. Ayniqsa, Mudaraba shartnomalarida mablag‘ egasi va tadbirkor o‘rtasidagi axborot assimetriyasi ma‘naviy tavakkalchilik va salbiy tanlov kabi klassik agentlik muammolarini yuzaga keltiradi. Empirik tadqiqotlar ushbu omillar sheriklik asosidagi moliyalashtirish ulushi yuqori bo‘lgan yirik islomiy banklarda risk darajasining oshishiga olib kelishini ko‘rsatadi [4].

Islomiy banklar foiz to‘lamasligiga qaramay, ular depozit resurslarini jalb qilish bo‘yicha an‘anaviy banklar bilan bir xil bozorda raqobatlashadi. Agar islomiy moliyalashtirish operatsiyalari bo‘yicha shakllangan daromadlilik bozor stavkalaridan past bo‘lsa, investitsiya hisobvaraqlari egalari tomonidan mablag‘larni boshqa moliyaviy institutlarga o‘tkazish ehtimoli ortadi. Mazkur holat daromadlilik darajasi riskining kuchayishiga va siqib chiqarilgan tijorat riskining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi [9].

Salam shartnomalari bo‘yicha bank kelajakda yetkazib berilishi lozim bo‘lgan tovar uchun oldindan to‘lovni amalga oshiradi. Natijada shartnoma tuzilgan vaqt bilan mahsulot yetkazib berilishi o‘rtasidagi davrda tovar narxlarining o‘zgarishi bank uchun qo‘shimcha bozor riskini yuzaga keltiradi. Ijarah shartnomalarida esa aktivga egalik huquqi bankda saqlanib qolganligi sababli, aktivning saqlanishi, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari hamda uning shikastlanishi yoki yo‘qolishi bilan bog‘liq risklar bank zimmasida bo‘ladi. Bu jihat islomiy lizingni an‘anaviy lizing operatsiyalaridan ajratib turadi [6].

An‘anaviy bank amaliyotida kredit riskini baholash odatda defolt ehtimoli (PD), defolt holatidagi zarar miqdori (LGD) va defolt paytidagi ekspozitsiya (EAD) ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Murabaha operatsiyalarida ushbu yondashuvdan foydalanish nisbatan oson bo‘lsa-da, zarar miqdorini baholashda foiz omilining mavjud emasligi sababli ayrim metodik moslashtirishlar talab etiladi [8].

Sheriklik asosidagi moliyalashtirish instrumentlari uchun esa an‘anaviy kredit skoring tizimlari yetarli darajada samarali emas. Bunday operatsiyalarda qat‘iy belgilangan pul oqimlari mavjud bo‘lmaydi va moliyaviy natijalar bevosita loyiha samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli Mudaraba va Musharaka operatsiyalarida kreditga layoqatlilikdan ko‘ra investitsiya loyihasining iqtisodiy asoslanganligi, biznes-modelning barqarorligi va kelajakdagi pul oqimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda bu turdagi moliyalashtirish uchun loyiha moliyalashtirishiga xos monitoring va baholash mexanizmlari qo‘llaniladi [4].

IFSB-12 standartida islomiy banklar likvidligini boshqarishning asosiy muammosi sifatida foizli instrumentlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi qayd etilgan [14]. Shariatga mos banklararo bozor instrumentlari va markaziy bankning tegishli likvidlik mexanizmlari mavjud bo‘lmagan sharoitda islomiy banklar likvidlik riskini asosan aktiv va passivlar muddatlarini muvofiqlashtirish hamda qo‘shimcha kapital va likvidlik zaxiralari shakllantirish orqali boshqarishga majbur bo‘ladilar. Shu munosabat bilan IFSB-13 standartida Salam va Murabaha portfellarida tovar narxlarining o‘zgarishi, Ijarah va Musharaka operatsiyalarida aktivlar qiymatining pasayishi, sukuk bozoridagi likvidlikning qisqarishi hamda investitsiya hisobvaraqlari egalari tomonidan mablag‘larning ommaviy ravishda qaytarib olinishi kabi holatlarni hisobga oluvchi maxsus stress-test ssenariylarini qo‘llash tavsiya etiladi [15].

Operatsion risklarni boshqarish nuqtai nazaridan IFSB-1 standarti islomiy banklardan shariat talablariga rioya qilmaslik holatlarini operatsion risk hodisalari sifatida hisobga olishni talab qiladi [12]. Shu maqsadda banklar shariat nomuvofiqligi bilan bog‘liq holatlar reyestrini





yuritishlari, ularni shartnomaning haqiqiylik darajasiga qarab tasniflashlari hamda yuzaga kelgan moliyaviy va reputatsion yo‘qotishlarni operatsion risklar bazasida aks ettirishlari zarur. Xususan, daromadlarni tozalash xarajatlari, shartnomalarni qayta tuzish bilan bog‘liq xarajatlar hamda obro‘ga yetkazilgan zararlar operatsion yo‘qotishlarning tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etiladi. Shu bilan birga, IFSB-31 standarti shariat boshqaruvi tizimlariga qo‘yiladigan talablarni belgilab, operatsion va shariat risklarining oldini olishda ularning muhim rolini ta‘kidlaydi [16].

IFSBning moliyaviy barqarorlik hisobotlari ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, IFSB standartlari asosida shakllantirilgan stress-testlash tizimlarini qo‘llayotgan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan islomiy banklar makroiqtisodiy zarbalarga nisbatan yuqori darajadagi barqarorlikni namoyon etmoqda [1]. Xususan, ushbu banklarda kapital yetarliligi va birinchi darajali kapital ko‘rsatkichlari uzoq muddat davomida prudensial me‘yorlardan yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Bu esa IFSB standartlariga asoslangan risklarni boshqarish tizimi nafaqat nazorat samaradorligini, balki banklarning raqobatbardoshligini ham oshirishini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish jarayoni islomiy bank faoliyatiga xos bo‘lgan risklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qator institutsional omillar bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ushbu omillarni to‘rtta asosiy guruhga ajratish imkonini berdi.

Birinchidan, mamlakatda islomiy moliya bo‘yicha huquqiy va me‘yoriy baza hali to‘liq shakllanmagan. Garchi 2026-yil fevral oyida "Islom banki to‘g‘risida"gi qonun qabul qilingan va Markaziy bank tomonidan islomiy mikromoliyalashtirish faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, islomiy moliyaviy instrumentlarning huquqiy maqomi va ularning amaldagi qonunchilik bilan o‘zaro uyg‘unlashuvi masalalari to‘liq hal etilmagan. Xususan, sukuk emissiyasi, garov huquqlarining amalga oshirilishi, bankrotlik jarayonlari hamda investitsiya hisobvaraqlari egalari manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalar qo‘shimcha huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Shuningdek, Murabaha va Ijarah kabi mahsulotlarda mulk huquqining bir necha bosqichda o‘tishi ayrim hollarda soliq va huquqiy xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, mamlakatda zamonaviy moliya va fiqh al-muomalat sohalarini birlashtirgan malakali shariat mutaxassislari soni cheklanganligi shariat boshqaruvi tizimini shakllantirishni murakkablashtirmoqda. Shariat kuzatuv kengashlari faoliyatining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi mahsulotlarning shariat talablariga muvofiqligini baholash jarayonini qiyinlashtirib, shariat riski va reputatsion risklarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Markaziy bank huzurida markazlashtirilgan shariat kengashini tashkil etish ushbu muammoni qisman yumshatishi mumkin bo‘lsa-da, vakolatlarning markazlashuvi bilan bog‘liq boshqaruv risklarini ham hisobga olish zarur.

Uchinchidan, O‘zbekistonda shariat talablariga mos keluvchi likvidlikni boshqarish instrumentlari va rivojlangan sukuk bozori hali shakllanmagan. Natijada, islomiy moliya institutlari yoki islomiy oynalar qisqa muddatli likvidlik taqchilligi sharoitida an‘anaviy banklar foydalanadigan likvidlik mexanizmlaridan foydalana olmaydi. Shariatga mos repo operatsiyalari, banklararo bozor instrumentlari va markaziy bankning favqulodda likvidlik vositalarining mavjud emasligi likvidlik riskining oshishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda islomiy moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning yuqoriligi siqib chiqarilgan tijorat riskining yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. BMT Taraqqiyot dasturining 2024-yildagi tadqiqotlari aholining sezilarli qismi diniy sabablarga ko‘ra an‘anaviy bank xizmatlaridan foydalanmasligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, islomiy moliyaviy xizmatlar joriy etilganidan so‘ng investitsiya hisobvaraqlari egalari daromadliligi bozor stavkalaridan sezilarli darajada past bo‘lsa, mablag‘larning boshqa moliya institutlariga oqib ketish xavfi kuchayadi. Bunday sharoitda banklar investorlarga qo‘shimcha daromad to‘lash uchun aksiyadorlar kapitalidan foydalanishga majbur bo‘lishi mumkin. Shu bois Markaziy bank tomonidan PER va IRR zaxiralari hamda IFSB-23 standartida nazarda tutilgan alfa koeffitsientini oldindan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan institutsional omillar islomiy moliyani barqaror va xavfsiz joriy





etish uchun tegishli institutsional infratuzilmani shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida to'rtta ustunga asoslangan institutsional rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. 3-jadvalda ushbu ustunlar, ularga mos keluvchi IFSB standartlari hamda ustuvor tartibga solish choralari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aks ettirilgan..

4-jadval
O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya risklarini boshqarishning to'rt ustunli tizimi

Ustun	Yo'nalish	Tegishli IFSB standartlari	O'zbekiston uchun ustuvor harakatlar
I	Me'yoriy-huquqiy infratuzilma	IFSB-1 (2005); IFSB-17 (2015)	Murabaha va Ijarah operatsiyalarida mulk huquqining takroriy o'tishi natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha soliq yukini bartaraf etish maqsadida Soliq kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish; Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda islomiy moliyaviy shartnomalarni tan olish va ularning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;
II	Shariat boshqaruvi tizimi	IFSB-10 (2009); IFSB-31 (2025)	Markaziy bank huzurida maslahat va metodologik vakolatlarga ega bo'lgan markazlashtirilgan mustaqil Shariat kengashini tashkil etish; shariat mutaxassislarini tayyorlash va sertifikatlash bo'yicha milliy tizimni joriy etish;
III	Risklarni miqdoriy baholash va nazorat qilish	IFSB-12 (2012); IFSB-13 (2014); IFSB-23 (2021)	Banklarning ICAAP jarayonlariga siqib chiqarilgan tijorat riski (DCR) uchun alfa koeffitsienti hamda foydani tenglashtirish zaxiralari (PER) va investitsiya risklari zaxiralari (IRR) mexanizmlarini integratsiya qilish; likvidlikni boshqarish maqsadida Markaziy bank tomonidan shariatga muvofiq repo instrumentlarini, jumladan Sukuk al-Ijarah asosidagi vositalarni joriy etish; SREP jarayonlarida islomiy moliyaga xos stress-test ssenariylarini majburiy qo'llash.
IV	Institutsional va kadrlar salohiyatini rivojlantirish	IFSB-9 (2009); IFSB-22 (2018)	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Bank-moliya akademiyasida islom moliyasi yo'nalishi bo'yicha maxsus magistratura va sertifikatlash dasturlarini yo'lga qo'yish; islomiy oynalarni litsenziyalashdan avval banklarning axborot tizimlarini moslashtirish talablarini belgilash; islomiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini amalga oshirish.

Manba: IFSB (2005-2025) bilan muvofiqlashtirilgan mualliflar tuzilmasi.

Taklif etilayotgan to'rt ustunli tizimning samaradorligi nafaqat uning tarkibiy elementlariga, balki ularni joriy etish ketma-ketligiga ham bevosita bog'liqdir. Avvalo, me'yoriy-huquqiy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan birinchi ustun amaliy jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki shariat boshqaruvi institutlarining mustaqilligi, shuningdek risklarni miqdoriy baholash va nazorat qilish mexanizmlarining samarali ishlashi tegishli qonunchilik va tartibga solish asoslari mavjud bo'lishini talab qiladi.

Shu bilan birga, malakali mutaxassislarni tayyorlash uzoq muddatli jarayon hisoblanganligi sababli, institutsional salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan to'rtinchi ustunni birinchi ustun bilan parallel ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda, zarur inson kapitali va ekspert salohiyati yetishmasligi islomiy moliyaviy institutlarning barqaror faoliyat yuritishini cheklashi mumkin.

Mazkur sharoitda Markaziy bank tomonidan joriy etilishi rejalashtirilayotgan islomiy oyna faoliyatini litsenziyalash tizimi faqat kirishdan keyingi nazorat mexanizmlariga emas, balki dastlabki prudensial talablar tizimiga ham asoslanishi zarur. Xususan, siqib chiqarilgan tijorat riskini hisobga olish uchun alfa koeffitsienti, foydani tenglashtirish zaxiralari (PER) va investitsiya risklari zaxiralari (IRR) bo'yicha minimal talablar, shuningdek shariat kuzatuv kengashining tarkibi va mustaqilligiga oid mezonlar litsenziyalashning majburiy shartlari sifatida belgilanishi





maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Tadqiqot natijalari islomiy bank faoliyatining risk profili an’anaviy bank tizimidagi risklarning oddiy modifikatsiyasi emasligini, balki o’ziga xos iqtisodiy va institutsional xususiyatlarga ega mustaqil risk tizimini shakllantirishini ko’rsatdi. Shariat talablariga rioya qilmaslik riski, siqib chiqarilgan tijorat riski, sheriklik asosidagi investitsiyalar riski, daromadlilik darajasi riski hamda savdo shartnomalarida aktiv va tovar narxlarining o’zgarishi bilan bog’liq risklar islomiy moliya institutlarining umumiy risk profilini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur risklarning mavjudligi ularni baholash va boshqarishda an’anaviy Bazel yondashuvlarini bevosita qo’llash imkoniyatini cheklaydi hamda maxsus prudensial mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 12 ta mahsulotni qamrab oluvchi ko’p o’lchovli risk matritsasi islomiy moliyalashtirish instrumentlarining risk xususiyatlarini tizimli ravishda baholash imkonini beradi. Tahlil natijalari sheriklikka asoslangan moliyalashtirish instrumentlari yuqori risk darajasi bilan tavsiflanishini, savdo moliyalashtirishiga asoslangan Murabaha kabi instrumentlar esa nisbatan barqaror risk profiliga ega ekanligini ko’rsatdi. Shu bilan birga, savdo asosidagi mahsulotlarda ham shariat talablariga qat’iy rioya etilishi operatsion va huquqiy risklarni minimallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

O’zbekiston misolida o’tkazilgan tahlil mamlakatda islomiy moliyani rivojlantirish jarayonida huquqiy infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, malakali shariat mutaxassislarining cheklanganligi, likvidlikni boshqarish bozor instrumentlarining mavjud emasligi hamda siqib chiqarilgan tijorat riskining yuqori ehtimoli kabi omillar alohida ahamiyat kasb etishini ko’rsatdi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda taklif etilgan to’rt ustunli institutsional model IFSB standartlarini milliy sharoitlarga moslashtirish hamda islomiy moliya institutlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun konseptual asos vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot natijalari Markaziy bank tomonidan islomiy moliyaviy xizmatlarni litsenziyalash jarayonida me’yoriy-huquqiy baza va shariat boshqaruvi tizimining tayyorlik darajasiga alohida e’tibor qaratilishi zarurligini ko’rsatadi. Islomiy moliyaviy mahsulotlarni tegishli institutsional infratuzilma shakllanmasdan turib joriy etish moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi va risklarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlar bir necha istiqbolli yo’nalishlarni qamrab olishi mumkin. Birinchidan, O’zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda islomiy moliyaviy portfellar uchun makroiqtisodiy stress-test modellarini ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, sukuk bozorini rivojlantirish bo’yicha xalqaro tajribani, xususan, Kazaxstan va Malaysia tajribasini qiyosiy tahlil qilish milliy kapital bozorini rivojlantirish uchun muhim amaliy xulosalar berishi mumkin. Uchinchidan, siqib chiqarilgan tijorat riskining miqdoriy bahosi hamda PER va IRR zaxiralari bo’yicha optimal parametrlarni aniqlash bo’yicha empirik tadqiqotlarni amalga oshirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB Islomiy moliyaviy xizmatlar sohasining barqarorlik hisoboti 2024. — Kuala Lumpur: IFSB, 2024. <https://www.ifsb.org>
2. BMTTD O'zbekiston. O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish: imkoniyatlar va muammolar. — Toshkent: BMTTD, 2024. <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/introduction-islamic-finance-uzbekistan>
3. Botirova H.O. O'zbekistonda islom moliyasining umumiy ko'rinishi: muammolar va istiqbollor // European Journal of Economics, Finance and Business Development. — 2023. — T. 1, № 4. — B. 20–25. URL: <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/246>
4. Abedifar P., Molyneux P., Tarazi A. Risk in Islamic Banking // Review of Finance. — 2013. T. 17, № 6. — B. 2035–2096. DOI: <https://doi.org/10.1093/rof/rfs041>





5. El-Gamal M.A. *Islamic Finance: Law, Economics, and Practice*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006. DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9780511753756>
6. Akkizidis I., Khandelwal S.K. *Financial Risk Management for Islamic Banking and Finance*. — New York: Palgrave Macmillan, 2008. DOI: <https://doi.org/10.1057/9780230598751>
7. Oseni U.A., Hassan M.K. *Managing Shariah Non-Compliance Risk via Islamic Dispute Resolution // Journal of Risk and Financial Management*. — 2020. — T. 13, № 1. B. 2. DOI: <https://doi.org/10.3390/jrfm13010002>
8. Čihák M., Hesse H. *Islamic Banks and Financial Stability: An Empirical Analysis // Journal of Financial Services Research*. 2010. - T. 38, № 2-3. B. 95–113. DOI: <https://doi.org/10.1007/s10693-010-0089-0>
9. Hassan M.K., Aliyu S. *A contemporary survey of Islamic banking literature // Journal of Financial Stability*. 2018. T. 34. B. 12-43. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jfs.2017.11.006>
10. Abdeljawad I., Rashid M. va boshq. *Cushion Hypothesis and Credit Risk: Islamic versus Conventional Banks from the MENA Region // PLOS ONE*. — 2024. — T. 19, № 7. — e0306901. DOI: <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0306901>
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 3536-sonli qaror: Mikromoliya institutlari tomonidan islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi nizam. — Toshkent: O'MB, 2024-yil 27-iyul. [Elektron resurs]. URL: <https://cbu.uz/uz/documents/resolutions/>
12. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-1: Faqat islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar uchun xatarlarni boshqarishning asosiy tamoyillari [Bank segmenti]*. Kuala Lumpur: IFSB, 2005. [Elektron resurs]. URL: <https://www.ifsb.org/published-standards/>
13. Laahasna A. *Shariah Non-Compliance Risk Management and Legal Documentations in Islamic Finance*. Singapore: John Wiley & Sons, 2014. DOI: <https://doi.org/10.1002/9781119208686>
14. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-12: Islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar uchun likvidlik xavfini boshqarish bo'yicha rahbariy tamoyillar*. — Kuala Lumpur: IFSB, 2012. [Elektron resurs]. <https://www.ifsb.org/published-standards/>
15. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-13: Islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar uchun stress-test bo'yicha rahbariy tamoyillar [Bank segmenti]*. — Kuala Lumpur: IFSB, 2014. [Elektron resurs]. <https://www.ifsb.org/published-standards/>
16. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-31: Shariat boshqaruvini samarali nazorat qilish bo'yicha asosiy tamoyillar*. Kuala Lumpur: IFSB, 2025. <https://www.ifsb.org/press-releases/>
17. Al Rahahleh N., Bhatti M.I., Misman F.N. *Developments in Risk Management in Islamic Finance: A Review // Journal of Risk and Financial Management*. — 2019. — T. 12, № 1. — B. 37. DOI: <https://doi.org/10.3390/jrfm12010037>
18. Asadov A., To'raboyev A. va boshq. *O'zbekistonda sukukka bo'lgan talabning empirik tahlili // Economies*. 2024. — T. 12, № 8. — B. 220. DOI: <https://doi.org/10.3390/economies12080220>
19. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-23: Islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar uchun kapital yetariligidining qayta ko'rib chiqilgan standarti [Bank segmenti]*. Kuala Lumpur: IFSB, 2021. [Elektron resurs]. <https://www.ifsb.org/published-standards/>
20. Rosman R., Abdul Rahman A.R. *Islom banklari tomonidan risklarni boshqarishning IFSB rahbariy tamoyillari amaliyoti: Xalqaro dalillar // Journal of Islamic Accounting and Business Research*. — 2015. — T. 6, № 2. — B. 150–172. DOI: <https://doi.org/10.1108/JIABR-09-2012-0058>
21. *Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB). IFSB-17: Islom moliyasini tartibga solishning asosiy tamoyillari [Bank sektori]*. — Kuala Lumpur: IFSB, 2015. <https://www.ifsb.org/published-standards/>





22. [22] Safarova N. O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliyani joriy etish samaradorligi // American Journal of Economics and Business Management. — 2025. — T. 8, № 10. — B. 5097–5104. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/4077>

